



XALQ BADIY HUNARMANDCHILIGI VA AMALIY SAN'ATINI KENG RIVOJLANTIRISH

Toshtemirova Umida Qobil qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Sport va chaqiriqqacha harbiy ta'lim fakulteti
Texnologik ta'lim yo'nalishi 1-bosqich talabasi
toshtemirovau5@gmail.com
tel:+998919631736
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7869859>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-april 2023 yil
Ma'qullandi: 24-april 2023 yil
Nashr qilindi: 27-april 2023 yil

KEY WORDS

1995 yil 24—25 oktabrda
Toshkentda BMTning
O'zbekistondagi doimiy
vakolatxonasi bilan amaliy
hamkorlikda O'zbekiston xalq
ustalari va hunarmandlari 1-
Respublika yarmarkasi
o'tkazildi.

ABSTRACT

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng hunarmandchilik rivojida yangi davr boshlandi, xalq hunarmandchiligi bozor qoidalari zahirida qaytadan tiklandi. O'zbekistonda mahalliy sanoat korxonalarining birinchilar qatori xususiy lashtirilishi natijasida mayda davlat korxonalari hunarmandlarning xususiy korxonalariga aylantirildi, yangi hunarmandchilik korxonalari ochildi. Hunarmandchilik faqat ichki bozorga emas, balki eksportga ham ishlay boshladi. Hunarmandchilikning tashkiliy shakli ham o'zgardi: kichik oilaviy korxona, yakka tartibdagi mehnat faoliyati shaklida rivojlana bordi.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng hunarmandchilik rivojida yangi davr boshlandi, xalq hunarmandchiligi bozor qoidalari zahirida qaytadan tiklandi. O'zbekistonda mahalliy sanoat korxonalarining birinchilar qatori xususiy lashtirilishi natijasida mayda davlat korxonalari hunarmandlarning xususiy korxonalariga aylantirildi, yangi hunarmandchilik korxonalari ochildi. Hunarmandchilik faqat ichki bozorga emas, balki eksportga ham ishlay boshladi. Hunarmandchilikning tashkiliy shakli ham o'zgardi: kichik oilaviy korxona, yakka tartibdagi mehnat faoliyati shaklida rivojlana bordi. 1995 yil 24—25 oktabrda Toshkentda BMTning O'zbekistondagi doimiy vakolatxonasi bilan amaliy hamkorlikda O'zbekiston xalq ustalari va hunarmandlari 1-Respublika yarmarkasi o'tkazildi.

Sharqdagi musulmon ustaxonalarida bo'lgani kabi O'zbekistonda chevarlik, kashtachilik bilan ayollar uyda o'tirib shug'ullanishgan. Hunarmandchilikning ijtimoiy strukturasida usta, xalfa va shogird kabi ijtimoiy toifalar mavjud bo'lgan. Hunarmandchilikning ichki tartib va qoidalari uning nizomi sifatidagi "Risolalar" belgilab bergan. Har bir kasbning o'z rahnamosi, ya'ni piri va "Risolasi" bo'lgan, avloddan-avlodga o'tuvchi odatlari va udumlariga rioya etilgan. Masalan, ish boshlashdan oldin usta o'z pirini yodga olib undan madad so'rash, shogirdiga fотиha berish kabi odatlarga amal qilingan.

O'zbekiston Rossiya mustamlakasiga aylangach, hunarmandchilik metropoliya sanoatining raqobatiga duch kelib, o'zining ilgarigi mavqeini yo'qotgan bo'lishiga qaramay, uning ko'p tarmoqlari saqlanib qoldi, chunki u milliy ehtiyojni qondiradigan tovarlarni, chunonchi, kiyim-

kechak, idish-tovoq, turli uy-ro'zg'or buyumlari, mayda mehnat qurollarini yaratib, ularni mahalliy bozorga yetkazib berdi. Hunarmandchilikning yashovchanligini ta'minlashda chet eldan keltirilgan xom ashyo, materiallar, kichik uskunalar muhim rol o'ynadi. Masalan, AQShdan keltirilgan teri bo'yog'idan foydalanib ko'ncilar amirkon deb nomlangan yupqa charm ishlab chiqara boshladi. Shu munosabat bilan amirkon etik, mahsi va kovushlar paydo bo'ldi. Germaniyadan "Zinger" firmasining tikuv mashinalari keltirilishi bilan tikuvchilik (chevarlik) keng yoyildi.

Rivojlangan mamlakatlarda yakka buyurtmalar va qimmatbaho badiiy buyumlar tayyorlaydigan hunarmandchilik sohalarigina (tikuvchilik, etikdo'zlik, gilamchilik, zargarlik, o'ymakorlik va boshqalar) saqlanib qoldi.

20-asr boshlarida esa mashinalashgan ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilishi bilan hunarmandchilik mahsulotlarining tur tarkibi va ishlab chiqarish hajmi keskin kamaydi. 20-asr davomida va 21-asr boshlariga kelib yirik industrial ishlab chiqarish qaror topgan bo'lsa-da, hunarmandchilikning mavqei saqlanib qoldi. Hunarmandchilikning bozorda segmenti kichik bo'lganidan yirik ishlab chiqarish egallay olmaydigan, talab individuallashtirgan o'z o'rnini bor. Mini texnologiyaning paydo bo'lishi hunarmandchilikda tovarlarni yakka tartibda va sifatli ishlab chiqarish imkonini beradi. Bunga milliy ustboshlar, milliy cholg'u asboblari, mayda asbob-uskunalar, turli yodgorlik buyumlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni kiritish mumkin. Hozirgi hunarmandchilik kichik biznes tarkibidagi yakka mehnat faoliyati va oilaviy korxonalardan iborat.

O'zbekiston hududida neolit davridayoq hunarmandchilikning dastlabki muhim tarmog'i hisoblangan sopol buyumlar ishlab chiqarish va to'qimachilik vujudga keldi (Xorazm vohasidagi Kaltaminor madaniyati, Surxondaryodagi Sopollitepa va boshqalar). Miloddan avvalgi 2-asrdan boshlab hunarmandchilik mahsulotlari savdosida Buyuk ipak yo'li muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'rta asrlarda Sharq mamlakatlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar (Arab xalifaligida po'lat, O'rta Osiyo va Hindistonda shoyi, chinini, qog'oz) Yevropa bozorlarida qadrlandi. Hindistonda paxtadan nafis mato, Xitoyda ipak mato to'qiydigan dastgohlar vujudga keldi, Xitoy va O'rta Osiyoda shisha tayyorlash texnologiyasi takomillasha bordi.

O'zbekistonning barcha hududlarida xalq san'atining o'ziga xos markazlari bo'lib, ular jahon madaniyatiga buyuk badiiy qadriyatlari bilan hissa qo'shgan.

Xulosa

O'zbek xalqining eng qadimgi urf-odatlarini, milliy qadriyatlari, tarixiy obidalari, hamda badiiy san'ati bir necha ming yillardan buyon davom etib kelmoqda. Hozirgi kunga kelib bu soha bo'yicha ko'plab rivojlanishlarni kuzatishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda nafaqat o'zbek xalqida balki, jahon miqyosida ham yetuk rivojlanib borayotgan xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash sohasi shu sirasiga kiradi. Xulosa qilib shuni aytish joizki, hozirgi va keyingi avlodlarga ham Xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atini keng miqyosda rivojlantirish hamda uni yanada takomillashtirish bo'yicha ko'plab chora-tadbirlar tashkil qilish rejalashtirilib borilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 31 martdagi —Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atni yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-1741-son Farmoni.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 30-martdagi —Xalq badiiy

hunarmandchiligi va amaliy san'atini rivojlantirishni yanada
qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi PF-4210-son Farmoni.
3. Sh. L. Mamasoliyeva. Xalq hunarmandchiligi. O'quv qo'llanma



INNOVATIVE
ACADEMY